

**FAVQULODDA VAZIYATLAR SODIR BO‘LGAN HUDUDLARDA  
JABRLANGAN AHOLINING BIRINCHI NAVBATDAGI HAYOTIY  
TA'MINOTINI TASHKIL ETISH**

**Nazarov Jasur Sobirovich**

*Hazorasp tumani FVB FVPB inspektori katta leytenant*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda aholi ko‘chirish choralari haqida, aholini evakuatsiya qilish, hayotiy ta'minot tadbirlari haqida.

**Kalit so‘zlar:** evakuatsiya, lokal, texnogen, ko‘chki.

**Kirish:** Favqulodda vaziyatda aholini muhofaza qilish yo‘nalishi; usullaridan biri, ularni evakuatsiya qilishdir, aholini turli xususiyatlardagi favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya qilish, barcha obyektlar, tashkilot va muassasalar rahbarlarining eng asosiy vazifalaridan bo‘lib, bu haqida O‘zbekiston Respublikasi «Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunining 11-moddasida bayon etilgan. Shuningdek, bu borada belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o‘tkazish va odamlarni joylashtirish maqsadida oldindan bazalar tayyorlab qo‘yish lozimligi qayd etilgan. Aholini evakuatsiya qilish, favqulodda vaziyatning ko‘lamiga qarab muhofaza qilishni eng yaxshi usullaridan biri, imkon darajasida aholini xavfli joylardan olib chiqib ketish, ya‘ni evakuatsiya tadbiri hisoblanadi. Lekin bu tadbir ancha murakkab bo‘lib, barcha evakuatsiya organlari tayyorgarlik ko‘rishlarini, fuqarolarni qanday harakat qilishga o‘rgatishga ahamiyat berishni talab etadi. “Chunki tabiiy ofat ro‘y bergan joyga maxsus xizmat tizimi bo‘limlari va boshqa hududlardan asosiy yordam kuchlari yetib kelguncha bir necha muddat vaqt kerak bo‘ladi. Tezlik bilan harakat qilinmasa, favqulodda vaziyatlar ayancli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Misol uchun 1999-yil Turkiyaning ayrim hududlarida sodir bo‘lgan zilzila tufayli 30 ming odam halok bo‘lgan. 1995-yilda Yaponiyaning Kobe shahrida bo‘lgan zilzila oqibatida 60 ming dan ortiq odam nobud bo‘lgan, ko‘rilgan moddiy zarar 100 mlrd A QSH dollariga teng deb baholangan, Ruminiyaning Baya–Borla shahri yaqinida joylashgan yarim metall tog‘- jinslarini qayta ishlash korxonasida sodir bo‘lgan favqulodda vaziyat tufayli 20 ming tonna o‘ta kuchli zaharlovchi moddalar Visheu va Tisa daryolari irmog‘iga oqib ketgan. Yevropaning bir qator davlatlarida sodir bo‘lgan suv toshqinlari, o‘rmonlarning yonishi, kuchli shamollar ko‘lami har xil bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni sodir bo‘lishiga olib kelgan. Pirovardida tinch aholining yashash sharoiti nihoyatda yomonlashlab, odamlarni xavfsiz joylarga ko‘chishiga sabab bo‘lgan. Bunday holatlar xavfni oldini olishga tayyorgarlik, aloqa va axborot vositalarining doimiy

shayligini nazorat qilishga, takomillashtirishga, evakuatsiya rejalaridagi tadbirlarni o‘z vaqtida o‘tkazishga, tibbiy yordamni ko‘rsatishga tayyor bo‘lishlikka chorlaydi. Bundan tashqari, tayyorgarlikni yuqori bo‘lishi, aholini va mas‘ul shaxslarni evakuatsiyaga tayyorlash va malakasini oshirishga, qutqarish kuchlarini xavf tugilganda, falokat vaqtida tezlik bilan to‘g‘ri harakatlar qilish ishlarini muvaffaqiyatli ta‘minlaydi. Avvalo, aholini ko‘chirish ishlari oldindan tayyorlangan reja asosida olib boriladi. Aholini evakuatsiya qilish (ko‘chirish), bu tabiiy, texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar yuz berganda va harbiy harakatlar sharoitida aholini muhofaza qilishning eng samarali usulidir. Ya‘ni, aholini xavfli hududlardan xavfsiz hududlarga olib chiqish (ko‘chirish) demakdir. Xavfli hudud- bu katta vayronalıklar (zilziladan va boshqa favqulodda vaziyatlardan) kimyoviy, radiatsiyaviy zaharlanish, halokatli suv bosish, sel kelish, yer silkinish, qor ko‘chkilari va boshqa hodisalar bo‘lishi ehtimoli bor hududlardir. Aholini evakuatsiya qilish asoslari Aholini ko‘chirish tadbirlarini favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va bo‘linmalari, ijroiya idoralari, shuningdek, iqtisodiyot obyektlarining hay‘atlari rejalashtiradi. Ko‘chirish rejalarini tinchlik davrida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni tugatish rejalarini tarzda rasmiylashtiriladi. Tegishli ko‘chirish hay‘atlari Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va bo‘limlarining, shuningdek, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari va iqtisodiyot obyektlari ma‘muriyatlarining ishtirokida tuziladi. Ushbu reja ko‘chiriladigan aholini qabul qilish, joylashtirish va uning kun kechirishini birinchi galda ta‘minlash kabi tadbirlardan iborat bo‘ladi. Aholini ko‘chirishni rejalashtirish oldindan ko‘chirish tashkilotlari, favqulodda vaziyat boshqarmalari va bo‘limlari ko‘rsatmalarni o‘rganib chiqadi, kerakli, dastlabki ma‘lumotlarni yig‘adi va tayyorlaydi, ko‘chiriladigan aholi joylashadigan joylarni tanlaydi va sharoitni o‘rganib chiqadi. Hududida turli favqulodda vaziyatlar: zilzila, sel, yer ko‘chkisi xavfi bor, suv bosish ehtimoli bo‘lgan hududlar, kimyoviy va radiatsion xavfli obyektlar mavjud bo‘lgan ma‘muriy-hududiy bo‘limlarda ishlab chiqiladigan aholini ko‘chirish rejalarining matn qismida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- ko‘chirish boshlangani haqida aholini xabardor qilish;
- ko‘chiriladiganlarning toifalarga bo‘linganlar soni;
- ko‘chiriladigan aholin joylashtirish joylari;
- ko‘chirish tadbirlarining bajarilish muddatlari;
- tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyat hududlaridan aholini transportda olib chiqish tartibi;
- ko‘chirish yo‘llarida jamoat tartibini va yo‘l harakati xavfsizligining ta‘minlanishini tashkil etish;
- ko‘chiriladigan aholini shaxsiy muhofaza vositalari bilan ta‘minlanishini tashkil etish;
- yig‘ilish joylarida va ko‘chirish yo‘nalishlarida aholi muhofazasini tashkil etish;

- ko'chirilgan aholini xavfsiz joylarga joylashtirish va uning turmush kechirishini birinchi galda ta'minlash tartibi va shu kabilar. Aholini evakuatsiya, ko'chirish, turli omillarni hisobga olgan holda bir necha turga bo'linadi FV miqyosi va ko'chiriladigan aholi soniga qarab:

1.Lokal (cheklangan);

2.Mahalliy;

3.Mintaqaviy ko'chirish, vaqtiga qarab: shoshilinch, oldindan o'tkaziladigan.

4. Oldindan o'tkaziladigan ko'chirish, favqulodda vaziyat (xavfli obyektlardagi falokatlar yoki tabiiy ofatlar) yuzaga kelish ehtimoli yuqori darajada ekani haqida, ishonchli ma'lumot olinganda o'tkaziladi. Bunga bir necha o'n daqiqadan, bir necha sutkagacha davr ichida favqulodda vaziyat sodir boiishi mumkinligi haqidagi oldindan taxminlash asos hisoblanadi.

5. Shoshilinch (kechiktirib boim aydigan) ko'chirishlar odamlarning hayoti va salomatligiga xavf tugiladigan darajada texnogen yoki tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyat yuzaga kelgan, aholining risoladagidek kun kechirishi buzilgan taqdirida o'tkaziladi.

6. Umumiy ko'chirish - favqulodda vaziyat hududidan hamma toifa aholi olib chiqilishini nazarda tutadi.

7. Qisman ko'chirish - favqulodda vaziyat hududidan mehnatga aloqasi bolmagan aholi maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab,kasb-hunar va boshqa o'rta-maxsus bilim yurtlari o'quvchilari olib chiqilishi zarur bo'lganda o'tkaziladi.

8.Transportda.

9.Piyoda.

10.Aralash.

Evakuatsiya qilingan aholini belgilangan joylarga joylashtirish evakuatsiyaning eng muhim tadbirlaridan biridir. Ko'chirilgan aholini xavfsiz joylarda qabul qilinib, ular reja asosida tartib, qoidalar bo'yicha joylashtiriladi. Ko'chirilgan aholini xavfsiz joylarda joylashtirish evakuatsiyasi. Ko'chirilgan aholini joylashtirish joylari 1:200000 yoki 1:100 000 masshtabdagi topografik xaritaga tushiriladi. Undagi ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-ma'muriy chegaralar;

-favqulodda vaziyat manbayining (radioaktiv ifloslanish, kimyoviy zaharlanish, zilzila xavfi bor joylar, sel, yer ko'chkisi hududlari, suv bosish hududlarining) shikastlovchi omillar ta'sir hududlarining oldindan taxminlangan chegaralari;

- aholini ko'chirish (piyoda va transportda olib chiqish) yo'nalishlari, har bir yo'nalishdagi transport miqdori, piyoda (transportda) olib chiqiladigan aholi soni, ko'chirish oraliq joylari;

- obyektlar, muassasalar va tashkilotlarga birkirilgan aholi yashash joylari:

- obyektning shartli tartib raqami, ko'chiriladiganlar soni, ko'chiriladigan aholi

zichligi va boshqalar. Tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyat yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan hududlardan tashqaridagi o'zini o'zi boshqarish mahalliy tashkilotlari, ko'chirib keltirilayotgan aholini qabul qilishva joylashtirishga tayyor bo'lishlari kerak. Buning uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- ko'chirish boshlangani va ko'chirilganlar yetib keladigan vaqt haqida xabarlashnitashkiletish;
- ko'chirish davomida boshqarish va aloqani tashkil etish;
- ko'chirib keltirilayotganlarning toifalari va miqdori bo'yicha aniqlashtirish;
- ko'chirilganlarni joylashtirish uchun rejalashtirilgan xizmat binolari, ma'muriy, madaniy-maishiy va boshqa imoratlari tayyorlash;

- ko'chish-oraliq joylarini yo'lga qo'yish tartibi, ko'chirilgan aholini ko'chish oraliq joylaridan joylashish joylariga yetkazish tartibi va muddatlari, shu maqsadlarga ajratiladigan transport vositalariga aniqlik kiritish;

- joylashish joylarida ko'chirilganlari turmush kechirishlarini ta'minlashni tashkil etish;

- mahalliy va ko'chirib keltirilgan aholiga yo'riqnoma va axborotlar berishni tashkillashtirish va shu kabilar.

#### **Foydalanilganadabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston,1997.
3. Karimov I. A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kim ga qaram bo'lm aydi. -T.: O'zbekiston,2005.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi P F-1378-sonli Farmoni. 1996-yil4-mart.
5. O'zbekiston Respublikasining «A holini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni.1999-yil 20-avgust.
- 6.O'zbekiston Respublikasining «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi Qonuni.2000-yil 26may.7.O'zbekiston Respublikasining «Odam ning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining oldini olish to'g'risida»gi Qonuni.1999-yil 19-avgust.
8. O 'zbekiston Respublikasining «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida»gi Qonuni.1999-yil 20-avgust.
- 9.O'zbekistonRespublikasining Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida»gi Qonuni. 2000-yil 31-avgust.
10. O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to 'g 'risida»gi Qonuni. 2000-yil15-dekabr.
11. O'zbekiston Respublikasining «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi Qonuni. 2006-yil 28-sentabr.
- 12.O'zbekistonRespublikasi Prezidentining «Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish

va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (2007-yil 19-fevral, PQ585-sonli).

13.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi Qarori (1996-yil 11-aprel,143-sonli).

14.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida»gi Qarori (1997-yil 23-dekabr, 558-sonli)